



## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

# 2020-yil yanvar-mart oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**951,6 mlrd. so`m**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **19,2 %**

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi  
– **48,2 %**

Norasmiy sektor  
ulushi – **32,6 %**

Toshkent viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida jami **951,6** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **102,0 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **182,7** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **19,2 %** ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **134,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **48,2 %** ni, yoki **458,4** mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **113,4 %** ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **32,6 %** yoki **310,5** mlrd. so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **80,1 %** ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi- 82,7 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati- 134,3 %
- ulushi - 19,2 %



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 458,4 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 113,4 %
- ulushi - 48,2 %



### Norasmiy sektor

- hajmi - 310,5 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 80,1 %
- ulushi - 32,6 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari, mlrd. so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **71,7 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **5,3 %** punktga kamaydi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **12,8 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **3,6 %** punktga ko`paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **15,5 %** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** punktga ko`paydi.



## Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da





## 2020-yil yanvar-mart oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari % da



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **19,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,3** punktga ko'paydi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **34,9 %** ni (6,2 punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **45,5 %** ni (10,5 punktga kamayish) tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **39,9 %** ni (12,9 punktga ko'paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **60,1 %** ni (12,9 punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **0,3 %** ni (**0,4** punktga kamayish) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **99,7 %** ni (**0,4** punktga ko'paydi) tashkil etdi.

## Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2020-yil yanvar- mart oylarida)

	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	2019-yil yanvar- mart oylariga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	951,6	102,0	100,0
Nurafshon sh.	32,5	106,5	3,4
Olmaliq sh.	33,8	94,3	3,6
Angren sh.	32,0	103,8	3,4
Bekobod sh.	32,2	103,2	3,4
Ohangaron sh.	26,7	101,2	2,8
Chirchiq sh.	35,4	103,8	3,7
Yangiyo'l sh.	14,6	111,2	1,5
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	20,5	85,6	2,3
Ohangaron	22,1	102,0	2,3
Bekobod	28,4	106,6	3,0
Bo'stonliq	74,6	117,8	7,8
Bo'ka	20,2	109,8	2,1
Quyichirchiq	22,9	114,5	2,4
Zangiota	141,2	96,5	14,8
Yuqori Chirchiq	50,1	85,0	5,3
Qibray	105,9	136,4	11,1
Parkent	50,9	106,8	5,3
Piskent	23,1	103,2	2,5
O'rta Chirchiq	47,1	111,8	4,9
Chinoz	19,2	73,7	2,0
Yangiyo'l	27,6	88,4	2,9
Toshkent	90,6	87,0	9,5

## 2020-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **458,4** mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **48,2 %**) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **32,6 %** ni yoki **310,5** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **80,1 %** ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **182,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **19,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **134,3 %** ni tashkil etdi.



## Yanvar-mart oylarida subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da




Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-mart oylarida **141,2** mlrd. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan **96,5 %** ga bajarildi.




Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Bo'ka tumani (20,2 mlrd. so'm yoki 109,8 %), Chinoz tumani (19,2 mlrd. so'm yoki 73,7 %) va Yangiyo'l shahri (14,6 mlrd. so'm yoki 111,2 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





**2020-yil anvar-mart oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 14,8 % ini, Qibray tumanida 11,1 % ni va Toshkent tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 9,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Bo'ka tumani bu ko`rsatkich eng past 2,1 % ni tashkil etdi. Chinoz tumani 2,0 % ni va Yangiyo'l shahrida 1,5 % dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Toshkent viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Nashr uchun mas'ul: B. Djavliyev**  
*Aloqa telefoni: (71) 230-86-71*